

Uzbekistan Airways Express Toshkentdan Samaraga parvozlarni yoʻlga qoʻymoqda

2022 30 May

2022-yil 4-iyun kuni Uzbekistan Airways Express Toshkent – Samara – Toshkent xalqaro yoʻnalishi boʻyicha ilk qatnovini amalga oshiradi. Muntazam aviaqatnovlar haftada bir marta – shanba kunlari amalga oshiriladi.

Aviaqatnovlar quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi:

Toshkentdan joʻnab ketish: 19:05 (Toshkent vaqti bilan)

Samaraga yetib borish: 21:25 (Samara vaqti bilan)

Samaradan joʻnab ketish: 23:20 (Samara vaqti bilan)

Toshkentga yetib borish: 03:25 (Toshkent vaqti bilan)

Toshkent – Samara yoʻnalishi boʻyicha aviachipta narxi 1 671 973 soʻmdan (bagajsiz) va 1 837 632 soʻmdan (bagaj bilan), Toshkent – Samara – Toshkent yoʻnalishi boʻyicha esa 3 248 454 soʻmdan (bagajsiz) va 3 579 872 soʻmdan (bagaj bilan) boshlanadi.

Narxlar 30.05.2022 holatiga koʻra amal qiladi.

Aviachiptalarni www.uzairways.com rasmiy saytidan 3% chegirma bilan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qiling.